# XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI № 135288

«26» avgust 2022 yil Termiz shahri

**"BRAND-PRINT" XK**, bundan buyon «Ish bajaruvchi» deb ataluvchi, raxbari **Djurayev Sherzod Xaqnazarovich,** Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va **Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limi**, bundan buyon «Buyurtmachi» deb ataluvchi, rahbari **Raxmatullayeva Nargiza Abduraxmonovna**, Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzadilar:

## 1. SHartnoma predmeti

1.1 «Ish bajaruvchi» «Buyurtmachi» tomonidan buyurtma qilingan ish hajmini bajarib beradi, «Buyurtmachi» esa ish hajmi buyicha bajarilgan (xizmatlar) ishlarini qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

| № | Ish (xizmat)lar nomi | O'lchov birligi | Miq-dori | Narxi | Summasi | QQS | | Umumiy summasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | % | summa | |
| 1 | 30 ta Engil metal Pauk (150 sm x 60 sm o'lchamli banner) O'rnatish uchun 4 dona jami 120 ta xalqa (koltsa) o'rnatilgan holda 2) 48 dona maxsus ish jurnali tayyorlash xizmati - Har bir jurnal yuzi karton - Muqova buyurtmachi tomonidan beriladigan logotip - Matnli yozuvlari yozilgan holda - ichi oq qog'ozda jadvallar tuzilgan, 100 varoq. 3) 60 dona Fotoalbom - yuzi qattiq karton - Rasmlar va matnli yozuvlar yozilgan holda 320 bet | Komp | 1 | 44 000 000 | 44 000 000 | 0 | 0 | 44 000 000 |
| | **Jami** | | | | **44 000 000** | **X** | **0** | **44 000 000** |

## 2.Bajariladigan ish hajmining narxi va umumiy qiymati

2.1. Bajariladigan ish hajmining umumiy qiymati Respublikamiz milliy valyutasi so'mda belgilanadi.

2.2. SHartnoma umumiy summasi ***44 000 000,00 – Qirq to'rt million*** so'mni tashkil qiladi.

2.3 Bajariladigan ishning qiymati, narx oshganligi natijasida uzgarganda, «Buyurtmachi»ga oldindan xabardor qilib, uzgargan narxini asoslangan holda ish bajariladi.

2.4 «Buyurtmachi» o'zgargan narxlar asosida qo'shimcha to'lovlarni byudjetda ko'rsatilgan limit doirasida shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar tuzilishi asosida amalga oshiradi .

## 3. To'lov shartlari

3.1 Buyurtmachi shartnoma to'liq qiymatining 30%i miqdorda 10 bank kunida «Ish bajaruvchi»ning maxsus hisob raqamiga (so'mda) oldindan to'lovni amalga oshiradi.

3.2 To'liq xizmatlar (ishlar) bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasi (hisob-faktura) asosida 10 bank kunida qolgan 70% to'lov «Ish bajaruvchi»ning maxsus hisob-raqamiga o'tkazib beriladi.

3.3 «Buyurtmachi» tomonidan mazkur shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmagan taqdirda «Ish bajaruvchi» shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini bajarmaslikga haqli bo'ladi.

3.4 «Buyurtmachi» to'lovlarni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat, akt dalalatnomasi, hisob-faktura)ga asosan shartnomadagi umumiy summasidan chiqmagan holda amalga oshiriladi.

## 4. Ishning bajarilish tartibi

4.1. SHartnomaning umumiy summasidan chiqmagan holda «Ish bajaruvchi» shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq bajarishi shart.

4.2. SHartnomaning 3.1. bandiga asosan pul mablag'lari «Ish bajaruvchi»ning hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng 5 bank ish kunida shartnomada ko'rsatilgan ish (xizmat)larni bajarilishi shart.

4.3. Bajariladigan ish hajmi shartnomaning umumiy summasidan oshsa «Buyurtmachi» va «Ish bajaruvchi» tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi 456-sonli qarori talablari asosida byudjet mablaglari doirasida o'zgartirish kiritishi yoki bekor qilinishi mumkin.

4.4. SHartnomada ko'rsatilgan ish hajmini «Ish bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng ish to'liq bajarilgan hisoblanadi.

## 5. Tomonlarning majburiyatlari

5.1. «Ish bajaruvchi» majburiyatlari:

- Oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng, shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini bajarishni boshlaydi.
- «Ish bajaruvchi» ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlaydi.
- Ish jarayonida «Buyurtmachi» aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib boradi.

5.2. «Buyurtmachi» majburiyatlari:

- Bajarilgan ish hajmini qabul qilib olguncha «Ish bajaruvchi» ishtirokida bajarilgan ishni obdon ko'zdan kechiradi va uning sifatiga yaroqliligiga e'tibor beradi;
- Agar bajarilgan ish talabga javob bermasa, ya'ni sifatsiz bo'lsa, «Buyurtmachi» qabul qilmaslikka va sifatsiz bajarilgan ish qismini qaytadan to'liq, sifatli, bajarib berishini talab qilishga haqli bo'ladi.
- Bajarilgan ish hajmi «Buyurtmachi» tomonidan to'liq qabul qilib olingandan so'ng «Ish bajaruvchi»ga shartnomada ko'rsatilgan summaning qolgan qismini to'liq o'tkazib berishi shart.

## 6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeks va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunining 25-32 bandlari bo'yicha javobgar bo'ladilar.

6.2. To'lovlar muddati kechiktirilganda, «Buyurtmachi» kechiktirilgan har bir kun uchun 0.05% miqdorida, lekin shartnoma umumiy summasining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. SHartnomada ko'rsatilgan ish hajmini o'z vaqtida bajarilishini kechiktirganligi uchun «Ish bajaruvchi» kechiktirilgan har bir kun uchun 0.05% miqdorida, lekin shartnoma umumiy summasining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Bajarilgan ish hajmi «Buyurtmachi» tomonidan qabul qilingandan keyin ikki tomonning kelishuviga binoan ___ oy muddatga javobgarlik «Ish bajaruvchi» tomonida qoladi.

6.5. SHartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

6.6. SHartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

**7. Nizolarni hal etish tartibi.**

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplaydi.

7.2. Tomonlar o'rtasada shartnomani tuzishda, bajarilishida, o'zgartirish va bekor qilishda etkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogohlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda Iqtisodiy Sud orqali hal qilinadi.

**8. Korrupцiyaga qarshi kurashish va boshqa shartlar**

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining Korrupцiyaga qarshi kurshish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, tovlamachilik qilmaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora ya'ni xodimi o'z hizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2. Ikki tomonning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgarish va qo'shimchalar qonuniy kuchiga ega buladi. O'zgarish va qo'shimchalar shartnomaga ilova qilinishi ham mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muhri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

8.3. Bir tomonlama shartnomani bekor qilishga to'lov shartlari bajarilmaganligi va maxsulot etkazib berish tartiblari buzilganligi asos bo'ladi.

8.4. SHartnomada ko'rsatilgan mablag'dan ortiqcha bajarilgan ish hajmining mablag'ini buyurtmachi to'lab berishni o'z zimmasiga olmaydi.

**9. Fors- major**

9.1. Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini g'ayri tabiiy holatlar, suv toshqini, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa, hech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

**10. SHartnomaning amal kilish muddati**

10.1. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va «31» dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

10.2. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib ikki tomon uchun ham teng kuchga ega bo'lib bank hisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

**11. Tomonlarning yuridik manzili**

**«Ish bajaruvchi»**

**NOMI: "BRAND-PRINT" XK**
**MANZIL:** Termiz sh., Baxt k., 4A-uy

**INN:** 306 238 118

**X\R:** 20208 000 705 037044 001

**B\K:** 01001
**NOMI:** "Hamkorbank" Termiz sh

**RAXBAR:** ____________ **Sh.Djurayev**
(imzo) (f.i.o )

**«Buyurtmachi»**

**NOMI: RMMM viloyat bo'limi**
**MANZIL:** Termiz sh., At Termiziy k., 1"A"-uy
**INN:** 200 477 793
**SHXV**: 400121860224017085500027001
**B\K:** 00014
**Moliya vazirligi G'aznachiligi**
**INN:** 201122919
**Bank:** Toshkent sh. MB HKKM
**x/r:** 23402000300100001010

**RAXBAR:** ____________ **N.Raxmatullayeva**
(imzo) (f.i.o )

# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 135288 на приобретение Poligrafiya xizmati

Способ проведения электронный

Дата 17.08.2022

Время рассмотрения 17.08.2022 11:35

Конкурсная комиссия Республикаси Маънавият ва маърифат маркази Сурхондарё вилоят бўлими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | RAXMATULLAYEVA NARGIZA ABDURAXMONOVNA | Рахбар | РМММ вилоят бўлими |
| **Секретарь комиссии** | XUDOYBERDIYEV ESHBURI XUDOYMUROTOVICH | Бош мутахассис | РМММ вилоят бўлими |
| **Член комиссии** | TO‘XTAMISHEV BOBOMUROD SHAVKAT O‘G‘LI | Хўжалик мудири | РМММ вилоят бўлими |
| **Член комиссии** | QURBANOV NURBEK AKBAR O‘G‘LI | Мутахассис | РМММ вилоят бўлими |
| **Член комиссии** | YO‘LDOSHEV SHOHRUH BOBOXON O‘G‘LI | Мутахассис | РМММ вилоят бўлими |
| **Член комиссии** | MEYLIMUXAMETOV ELYOR AKBAROVICH | Мутахассис | МММ вилоят бўлими |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 17.08.2022 года № лота 135288.
Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Полиграфические услуги** |
|---|---|
| Подробное описание | Texnik talab bo'yicha poligrafiya maxsulotlari tayyorlash xizmati. 1) 30 ta Engil metal Pauk (150 sm x 60 sm o‘lchamli banner) O‘rnatish uchun 4 dona jami 120 ta xalqa (koltsa) o‘rnatilgan holda 2) 48 dona maxsus ish jurnali tayyorlash xizmati - Har bir jurnal yuzi karton - Muqova buyurtmachi tomonidan beriladigan logotip - Matnli yozuvlari yozilgan holda - ichi oq qog‘ozda jadvallar tuzilgan, 100 varoq. 3) 60 dona Fotoalbom - yuzi qattiq karton - Rasmlar va matnli yozuvlar yozilgan holda 320 bet |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 45 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 45 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ishtirokchilar uchun talab

Тип: Текстовое значение

Описание: Tanlovda ishtirok etuvchilar ushbu xizmat turlarini bajarish bo‘yicha litsenziyaga eta bo‘lishi shart. Shuningdek, tayyorlash uchun zaruriy asbob- uskunalarga, talab etiladigan materiallar zaxirasiga, malakali mutaxassislarga eta bo‘lishi lozim

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП BRAND-PRINT** | 10 | 10 | 10 | Экспертная | | |
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | 10 | 10 | 9 | Экспертная | | |

Критерий №2 Xizmat ko'rsatish

Тип: Текстовое значение

Описание: Xizmatlar buyurtmachi talabi asosida sifatli bajarilishi shart. Sifatsiz xizmat uchun haq toʻlanmaydi

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП BRAND-PRINT** | 10 | 10 | 10 | Экспертная | | |
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | 10 | 10 | 9 | Экспертная | | |

Критерий №3 Xizmat koʻrsatish sohasi boʻyicha

Тип: Текстовое значение

Описание: Poligraf xizmatlar koʻrsatish boʻyicha litsenziya va guvoxnomaga ega boʻlishi lozim

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП BRAND-PRINT** | 10 | 10 | 10 | Экспертная | | |
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | 10 | 10 | 9 | Экспертная | | |

Критерий №4 Qarzdorlik boʻyicha

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirok etuvchilarning majburiy toʻlovlardan karzdorligi boʻlmasligi lozim

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП BRAND-PRINT** | 10 | 10 | 10 | Экспертная | | |
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | 10 | 10 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 Etkazib berish tartibi

Тип: Текстовое значение

Описание: Tayyor boʻlgan maxsulotlarni etkazib berish va oʻrnatib berish ish bajaruvchi tomonidan amalga oshiriladi

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП BRAND-PRINT** | 10 | 10 | 10 | Экспертная | | |
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | 10 | 10 | 9 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | 45 000 000.00 | 44 900 000.00 UZS | 44 900 000.00 | 00.00 | 44 900 000.00 | 16.08.2022 22:14:29 | 98.00 |
| **ЧП BRAND-PRINT** | 45 000 000.00 | 44 000 000.00 UZS | 44 000 000.00 | 00.00 | 44 000 000.00 | 13.08.2022 16:34:20 | 100.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ** | Прошел | 98 | 98 |
| **ЧП BRAND-PRINT** | Прошел | 100 | 100 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 135288 от 17.08.2022 года на приобретение Poligrafiya xizmati определила победителем:

ЧП BRAND-PRINT
306238118

и резервный исполнитель: XIDIRBOBO TERMIZ MCHJ (309173292)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | RAXMATULLAYEVA NARGIZA ABDURAXMONOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | TOʻXTAMISHEV BOBOMUROD SHAVKAT OʻGʻLI | Согласен | |
| **Член комиссии** | QURBANOV NURBEK AKBAR OʻGʻLI | Согласен | |
| **Член комиссии** | YOʻLDOSHEV SHOHRUH BOBOXON OʻGʻLI | Согласен | |
| **Член комиссии** | MEYLIMUXAMETOV ELYOR AKBAROVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

"T A S D I Q L A Y M A N"
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo vilyat bo'limi pahbari**

_____________ N.Raxmatullayeva
"_________" avgust 2022 yil

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo vilyat bo'limi ichki tanlov komissiyasining yig'ilish

**BAYONI № _______**

"__25__" avgust 2022 yil Termiz shahri

| | |
|---|---|
| Rais:- | E.Xudoyberdiyev |
| Kotib:- | B.To'xtamishev |
| A'zolari:- | N.Qurbonov |
| | Sh.Yo'doshev |
| | E.Meylimuxammedov |

**Kun tartibidagi masala:**
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo vilyat bo'limiga zaruriy poligrafiya maxsulotlarini tayyorlatish uchun ta'minotchi tashkilotlarni tanlab olish maqsadida ichki tanlov o'tkazish haqida**

Eshitildi: Ushbu masala bo'yicha bo'lim tanlov komissiyasi raisi E.Xudoyberdiyev so'zga chiqib, bo'li byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan zaruriy poligrafiya maxsulotlarini tayyorlatish bo'yicha davlat xaridlari elektron savdo portaliga 2022 yil 10 avgust kuni 22110012135288-raqamli lot bilan e'longa joylashtirilganligini, e'lon bo'yicha 17 avgust kuni tushgan takliflar bo'yicha №135288-sonli elektron bayonnoma shakllantirilganligini, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan ushbu protokol 2 ish kuni muhokamada turganligini va shu davrda hech qanda shikoyat kelib tushmaganligini aytib o'tdi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, yig'ilish qatnashchilari o'zaro kelishib

**Q A R O R Q I L A D I :**

1. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo vilyat bo'limiga zaruriy poligrafiya maxsulotlarini tayyorlatish uchun elektron tanlov g'olibi bo'lgan "BRAND-PRINT" XK bilan shartnoma tuzilisin.
2. Bo'lim bosh hisobchisi I.Tangirqulov shartnomaning g'aznachilik boshqarmasida ro'yxatdan o'tkazilishini va belgilangan tartibda to'lovlar amalga oshirilishini ta'minlasin.
3. Mazkur yig'ilish bayoni qarorining ijrosini nazorat qilish xo'jalik mudiri B.To'xtamishev zimmasiga yuklatilsin.

| | | |
|---|---|---|
| Yig'ilish raisi: | ___________ | E.Xudoyberdiyev |
| Kotib: | ___________ | B.To'xtamishev |
| A'zolari: | ___________ | N.Qurbonov |
| | ___________ | Sh.Yo'doshev |
| | ___________ | E.Meylimuxammedov |